

TOSHKENT VILOYATI FERMER XO‘JALIKLARIDA MAHSULOT (ISH, XIZMATLAR) YETISHTIRISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Oliy va amaliy matematika”

kafedrası assistenti

Bebutova Zulayxo Hamidovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada fermer xo‘jaliklari faoliyatini samaradorligini oshirish va uni statistik usullarda baholash masalalari ko‘rib chiqiladi. Fermer xo‘jaliklari faoliyatining samaradorligini baholash bo‘yicha zamonaviy statistik usullar va ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Statistik tahlil orqali xo‘jaliklarning resurslardan foydalanish darajasi va ishlab chiqarish samaradorligi o‘rganiladi. Maqola qishloq xo‘jaligi sohasida optimal qarorlar qabul qilishda yordam beruvchi asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Fermer xo‘jaliklari, samaradorlik, statistik baholash, qishloq xo‘jaligi, tahlil usullari.

“STATISTICAL EVALUATION OF THE PROCESSES OF PRODUCING GOODS (WORK, SERVICES) IN FARM ENTERPRISES OF THE TASHKENT REGION”

Bebutova Zulayxo Hamidovna-

Tashkent State University of Economics

Assistant of the Department of “Higher and applied mathematics”

Abstract: This article addresses issues of improving the efficiency of farm operations and evaluating them through statistical methods. Modern statistical methods and indicators used for assessing farm efficiency are analyzed. Statistical analysis is employed to study the level of resource utilization and production efficiency within farms. The article aims to identify key factors that aid in making optimal decisions in the agricultural sector.

Key words: farm operations, efficiency, statistical evaluation, agriculture, analysis methods.

«СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ПРОЦЕССОВ ВЫРАЩИВАНИЯ ПРОДУКЦИИ (РАБОТ, УСЛУГ) В ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВАХ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ»

Бебутова Зулайхо Хамидовна-

Ташкентский государственный экономический университет

ассистент кафедры «Высшая и прикладная математика»

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности деятельности фермерских хозяйств и их оценки с использованием статистических методов. Анализируются современные

статистические методы и показатели, применяемые для оценки эффективности фермерских хозяйств. С помощью статистического анализа изучаются уровень использования ресурсов и производственная эффективность хозяйств. Статья направлена на выявление основных факторов, способствующих принятию оптимальных решений в сфере сельского хозяйства.

Ключевые слова: фермерские хозяйства, эффективность, статистическая оценка, сельское хозяйство, методы анализа.

Kirish

Butun dunyo miqyosida bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar fermer xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarning bozor munosabatlarini ta'minlaydigan erkin iqtisodiy makonni vujudga keltirmoqda. Jahonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashib borishi, qtisodiyotning tobora erkinlashib borishini, jamiyatdagi modernizasiya jarayonlarining jadallashishi bozor munosabatlarining ham takomillashib borishiniga zamin yaratmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar natijasida vujudga kelgan fermer xo'jalikalri barqaror va samaradorlik darajasi yoqori bo'lishi lozim. "Dunyo mamlakatlarida korxonalar hajmi qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini mintaqaning tabiiy-iqlim sharoitlari, yer va geografik, inson omilini hisobga olgan tarzda iqtisodiy oqibat natijalariga ko'ra shakllanadi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismi fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. Kanadada bir fermer xo'jaligiga o'rtacha 215 gektar, AQSHda 145 gektar, Germaniyada 19,5 gektar, Belgiya va Gollandiyada 17,0 gektar, Italiyada 8,5 gektar yer to'g'ri keladi"¹. Bugungi kunda jahonda fermer xo'jaliklarida mahsulot (ish, xizmatlar) yetishtirish jarayonlarini statistik baholash aholini xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni ta'minlashning asosiy manbai sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i yetakchi sohalardan biri bo'lib, uning tarkibida fermer xo'jaliklari alohida o'rin egallaydi. Fermer xo'jaliklari mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shib kelmoqda. Shu sababli fermer xo'jaliklarida mahsulot (ish, xizmatlar) yetishtirish jarayonlarini statistik baholash va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-sonli Farmonida – "Iqtisodiyotning eng tez o'sib borayotgan yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, "korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot" klaster tizimini joriy etish doirasida amaliy tadqiqotlarga Davlat budjetidan 4 trillion so'm mablag' yo'naltirish, iqtisodiyot tarmoqlarining "drayver" yo'nalishlarida 850 turdagi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, amaliy tadqiqotlar natijalari asosida 2,5 mingdan ziyod yangi ilmiy ishlanmalar

¹<https://genderi.org/reja-i-kirish-ii-fermer-xojaliklari-va-ularning-tashkiliy-iqt.html?page=3>. ma'lumotlari.

yaratish, transport va logistika, qishloq xo'jaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika yo'nalishlarida 8 ta ilmiy ishlab-chiqarish klasterini tashkil etish"² kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilandi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, unda fermer xo'jaliklarining o'rni beqiyosdir. Toshkent viloyati respublikaning iqtisodiy va agrar salohiyati yuqori hududlaridan biri hisoblanadi. Fermer xo'jaliklarida mahsulot (ish, xizmatlar) yetishtirish jarayonlarini statistik jihatdan baholash ularning faoliyat samaradorligini aniqlash, mavjud resurslardan foydalanish darajasini o'rganish hamda kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi

Tadqiqot metodologiyasi

Fermer xo'jaliklari – qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari sifatida alohida iqtisodiy subyekt hisoblanadi. Ular yuridik jihatdan mustaqil bo'lib, yer maydonidan samarali foydalanish, mahsulot yetishtirish va uni realizatsiya qilish orqali o'z faoliyatini amalga oshiradi. Tadqiqot jarayonida statistik kuzatish, guruhlash, taqqoslash, dinamik qatorlar tahlili, o'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlar usullaridan foydalanildi.

Statistik usullar orasida dinamik qatorlarni o'rganish, variatsion tahlil, o'rtacha ko'rsatkichlar, korrelyatsion-regression modellari, indeks usullari keng qo'llaniladi. Ayniqsa, fermer xo'jaliklari faoliyatida ishlab chiqarish hajmi va samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganishda o'rtacha me'yoriy ko'rsatkichlardan foydalanish muhimdir.

Toshkent viloyati mamlakatimizning iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlaridan biri bo'lib, qishloq xo'jaligi bu yerda yetakchi sohalardan hisoblanadi. Hududning geografik joylashuvi, iqlim sharoiti, yer resurslari va infratuzilmasi fermer xo'jaliklari uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

So'nggi yillarda davlat tomonidan qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, kredit va subsidiyalar ajratish natijasida fermer xo'jaliklari soni va samaradorligi oshib bormoqda.

Natija va muhokama

Bizga ma'lumki ijobiy natijalarga erishishda davlatimiz rahbarining fermer xo'jaliklarining, tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonlari juda ahamiyat kasb etdi.

1-jadval

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

Toshkent viloyatida qishloq xo‘jaligi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasining o‘zgarishi³

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Qishloq xo‘jaligi ekinlari ekin maydoni, gektar	298166	290296	295760,5	289297,7	294981,7
Qishloq xo‘jaligi mahsuloti, mlrd. so‘m	23875,1	29538,3	33010,8	38779,8	41311,8
shu jumladan:					
dehqonchilik	10831,0	13965,4	16283,3	18432,3	19321,6
chorvachilik	13044,1	15572,9	16727,4	20347,6	21990,2
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish-ning o‘rish sur‘ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda	100,1	104,1	104,2	105,2	102,0
shu jumladan:					
dehqonchilik	100,5	104,5	106,0	103,7	101,2
chorvachilik	99,7	103,8	102,7	106,6	102,7

Toshkent viloyati bo‘yicha “2024- yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 44379,0 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilga nisbatan 101,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 42 108,8 mlrd. so‘mni (101,6 %), o‘rmon xo‘jaligi – 1 749,6 mlrd. so‘mni (104,0 %), baliqchilik xo‘jaligi – 520,6 mlrd. so‘mni (77,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi 9,5 % ni tashkil etdi”⁴. (1-jadval)

Shu sababli, “Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta‘minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi”⁵

Shu sababli, ushbu dinamika qatorlarini tahlil qilish ko‘rsatkichlar hisoblanadi:

1. “Mutlaq qo‘shimcha o‘rish yoki kamayish - har qaysi keyingi davr darajasidan boshlang‘ich yoki o‘zidan oldingi davr darajasini ayirish yo‘li bilan aniqlanadi.

$$\Delta_{i/i-1} = Y_i - Y_{i-1} \qquad \Delta_{i/i_0} = Y_i - Y_0 \qquad (1)$$

2. O‘rish yoki kamayish koeffitsienti yoki sur‘ati ($K_{o'k.}$) - har qaysi keyingi davr darajasi boshlang‘ich yoki o‘zidan oldingi davr darajasiga nisbatan qancha marta katta yoki kichik ekanligini yoki qancha foiz tashkil etishini ko‘rsatadi.

$$K_{i/i-1} = Y_i / Y_{i-1}; \quad T_{i/i-1} = Y_i \cdot 100 / Y_{i-1}; \quad K_{i/i_0} = Y_i / Y_0; \quad T_{i/i_0} = Y_i \cdot 100 / Y_0 \qquad (2)$$

³ Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2020-2024 yillik ma‘lumotlari tuzildi.

⁴ Toshkent viloyati statistika boshqarmasining ma‘lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari

⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” gi O‘RQ - 707 – sonli qonuni. 2021 yil. 11 avgust. . www.lex.uz

3. Qo'shimcha o'sish (kamayish) sur'ati (D) ham ikki usulda aniqlanishi mumkin. Birinchi usulda har bir keyingi davr darajasidan boshlang'ich davr darajasi ayirilib, 100 ga yuqoriytiriladi va boshlang'ich davr darajasiga bo'linadi.

$$\Delta_{i/i_0} = \frac{\sum (Y_i - Y_0) \cdot 100}{Y_0} \quad (3)$$

Ikkinchi usulda har bir keyingi davr darajasidan oldingi davr darajasi ayirilib, 100 ga yuqoriytiriladi va o'zidan oldingi yil darajasiga bo'linadi.

$$\Delta_{T_{i/i_0}} = \frac{\sum (Y_i - Y_{i-1}) \cdot 100}{Y_{i-1}} \quad (4)$$

1% qo'shimcha o'sish (kamayish)ning mutlaq qiymati – mutlaq qo'shimcha o'sish qiymati zanjirsimon qo'shimcha o'sish sur'atiga bo'linadi”⁶.

$$\Delta_{i/i-1} : \Delta_{T_{i/i-1}} \quad (5)$$

Quyida **Toshkent viloyatida fermer xo'jaliklarining yalpi ishlab chiqarish xajmi** dinamikasining tahliliy ko'rsatkichlarini keltiramiz.

2-jadval

Toshkent viloyatida fermer xo'jaliklarining yalpi ishlab chiqarish xajmi dinamikasini o'zgarishi⁷

Yillar	Fermer xo'jaliklar i yalpi ishlab chiqarishi, mln.so'm , (Y) (taqqoslama baholarda)	Absolyut qo'shimcha o'sish, mln.so'm		O'sish sur'ati, %		Qo'shimcha o'sish sur'ati, %		1 %li qo'shimcha o'sish (yoki kamayish)ning mutloq mohiyati, mlrd.so'm	
		Bazisli	Zanjirli	Bazisl i	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli	[u _i - y _{i-1}]/ [(U _i /Y _{i-1}) x100]- 100	(Y _{i+1})/ 100
		Y - Y ₀	Y _i - Y _{i-1}	Y _i /Y ₀ (x100	(Y _i /Y _{i-1}) x 100	[(Y _i /Y ₀) x 100]-100	[(Y _i /Y _{i-1}) x 100]- 100		
2014	12 054,80								
2015	11 910,10	-144,70	-144,70	98,80	98,80	-1,20	-1,20	120,54 8	120,54 8
2016	10 897,80	-1 157,00	-1 012,30	90,18	91,50	-9,82	-8,50	119,10 1	119,10 1
2017	8 413,10	-3 641,70	-2 484,70	69,62	77,20	-30,38	-22,80	108,97 8	108,97 8

⁶ N.M. Soatov, N.G'. Nabiyeu, A.H. Aybjonov. Amaliy statistika. Darslik. Toshkent-2020 y. 593 bet.

⁷ Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2014-2023 yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblarfi.

2018	7 798,90	-4 255,90	-614,20	64,53	92,70	-35,47	-7,30	84,131	84,131
2019	6 527,70	-5 527,10	-1 271,20	54,02	83,70	-45,98	-16,30	77,989	77,989
2020	5 666,00	-6 388,80	-861,70	46,89	86,80	-53,11	-13,20	65,277	65,277
2021	5 564,00	-6 490,80	-102,00	46,04	98,20	-53,96	-1,80	56,66	56,66
2022	6 587,80	-5 467,00	1 023,80	54,51	118,40	-45,49	18,40	55,64	55,64
2023	6 495,60	-5 559,20	-92,20	53,75	98,60	-46,25	-1,40	65,878	65,878
2024	4075,90	-7 978,9	-2 419,7	33,81	62,75	-66,19	-37,25	64,956	64,956

Toshkent viloyati hududlarida fermer xo'jaliklari yalpi ishlab chiqarish xajmi 2024 yilda 4075,90 mlrd. so'mni tashkil etgan yoki 2014 yilga nisbatan 7978,9 mlrd.so'mga kamaygan. (1 -jadval)

“Statistikada bir omilli modellarini aniqlash usuli juft korrelyatsiya, yuqori faktorli modellarni aniqlash usuli esa yuqori omilli korrelyatsiya deyiladi.

Guruhlangan ma'lumotlar to'plami bo'yicha regressiyani to'g'ri chiziqli tenglamasini aniqlash: $Y=a_0+a_1x$ taenglama bo'yicha olib boriladi. Bu yerda a_0 - ozod had, a_1 - regressiya tenglamasining koeffitsienti, x - omil belgining qiymatlari, Y_x - natijaviy belgi alohida qiymatlari”⁸.

3-jadval

Regressiya tenglamasini aniqlash uchun hisoblamalar jadvalini tuzamiz⁹:

Yillar	Fermer xo'jaliklarida etishtirilgan don va dukkakli don ekinlarning o'rtacha hosildorligi, ts/ga (Y)	1 ta fermerga to'g'ri keladigan yer maydoni, gektar (X)	xy	x ²	$Y_x = 24,8663 + 1,1387x$
2014	45,9	19	45,9	361	46,5
2015	44,4	17,9	44,4	320,41	45,2
2016	41,8	10,3	41,8	106,09	36,6
2017	34,8	8,5	34,8	72,25	34,5
2018	32,6	8,6	32,6	73,96	34,7
2019	45,6	13,5	45,6	182,25	40,2
2020	37,8	10,8	37,8	116,64	37,2
2021	34,8	10,2	34,8	104,04	36,5
2022	38,8	12	38,8	144	38,5
2023	36,9	13,4	36,9	179,56	40,1
2024	37,2	13,8	37,2	190,44	40,6
Jami:	430,6	138	430,6	1850,6	430,6
O'rtacha:	39,1	12,5	39,1	168,2	39,1

⁸ Shodiyev X., Xabibullayev I., Utanov B.Q. Statistika bo'yicha praktikum: o'quv qo'llanma //.-T.: IQTISOD-MOLIYA”, 2021.-33 6.

⁹ Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2014-2022 yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblarfi.

a_0 va a_1 parametrlari quyidagi normal chiziqli tenglamalar tizimidan kelib chiqadi:

$$n a_0 + a_1 \sum x = \sum y$$

$$a_0 \sum x + a_1 \sum x^2 = \sum yx$$

Tizimning parametrlariga nisbatan umumiy echimi ushbu ko‘rinishda yoziladi:

$$a_1 = \frac{\overline{xy} - \bar{x} \cdot \bar{y}}{x^2 - (\bar{x})^2} = \frac{502,3 - 12,5 \cdot 39,1}{168,2 - 12,5^2} = 1,1387$$

$$a_0 = \bar{y} - a_1 \bar{x} = 39,1 - 1,1387 \cdot 12,5 = 24,8663$$

fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarning o‘rtacha hosildorligi va 1 ta fermerga to‘g‘ri keladigan yer maydoni o‘rtasidagi bog‘lanish chiziqli bo‘lib, qo‘yidagi tasosiylama bilan ifodalanadi.

$$\bar{y}_x = a_0 + a_1 x$$

bu erda: Y_x - fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarning o‘rtacha hosildorligi, ts/ga.

x - 1 ta fermerga to‘g‘ri keladigan yer maydoni, gektar.

a_0 va a_1 - regressiya tenglamasi parametrlari.

3-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, regressiya tasosiylamasini parametrlari aniqlangandan so‘ng Y_x regressiyaning nazariy yo‘nalishi X qiymatlarini korrelyatsiya tasosiylamasida aloqasi aniqlandi.

Tenglama parametrlari to‘g‘ri aniqlanganda $\sum Y = \sum Y_x$ tenglik o‘rinli bo‘ladi. Regressiya koeffitsienti a_1 – omil (X) va natijaviy (Y) belgilar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlaydi. X - omil belgi bir birlikka o‘zgarganda (o‘sganda) Y - natijaviy belgi necha birlikka o‘zgarishini ko‘rsatadi. Demak, ushbu 1 ta fermerga to‘g‘ri keladigan yer maydoni ining 1 gektariga 0,35 ts/ga oshadi. Ushbu jadval ma‘lumotlaridan foydalangan tarzda grafigini yasaymiz. (3-jadval)

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotning tarmoqlariga ilg‘or xorijiy tajribalari statistik tadbiq etilmagan, yetishtirilgan don va dukkakli don ekinlarning o‘rtacha hosildorligining ilmiy-uslubiy asoslarini statistik o‘rganish, barqaror rivojlantirishning yo‘nalishlarini, kelgusidagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillarini baholash, raqobatchilik muhitini statistik tadqiq etish, ularda aniqlangan mavjud muammolarini hal etish yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslab berish, ularni rivojlantirish parametrlarini statistik baholash kabi muammolarni hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Toshkent viloyatida fermer xo‘jaliklari faoliyati barqaror o‘sib borayotgani kuzatilmoqda. Ekin maydonlari, hosildorlik va chorvachilik mahsulotlari hajmining o‘sishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini ko‘rsatmoqda.

Biroq ayrim muammolar ham mavjud:

-Suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari;

-Qishloq xo‘jaligi texnikasi va texnologiyalarining yetarli emasligi;

- Mahsulotlarni qayta ishlash va eksport qilish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- Fermer xo‘jaliklarida kadrlar malakasining pastligi.

Shu bois davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, subsidiyalar va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan agrotexnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida mahsulot (ish, xizmatlar) yetishtirish jarayonlarini statistik baholash ularning iqtisodiy holatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Statistik tahlil natijalaridan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilishda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tahlil natijalariga ko‘ra, Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi rivojlanishining muhim bo‘g‘ini sifatida barqaror o‘sib bormoqda. Fermer xo‘jaliklarining samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi yalpi va tovar mahsuloti ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. Toshkent viloyatida yetishtirilayotgan asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga don, sabzavot-poliz, meva-sabzavot hamda chorvachilik mahsulotlari kiradi. Statistik tahlil ishlab chiqarish hajmining yillar bo‘yicha o‘sish yoki kamayish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

2. Mehnat unumdorligi fermer xo‘jaliklarida samaradorlikni belgilovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. U bir ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi yoki tushum orqali aniqlanadi. Mehnat unumdorligining oshishi ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashuvi va resurslardan oqilona foydalanish bilan bog‘liq.

3. Mahsulot tannarxi fermer xo‘jaliklari raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Statistik baholashda urug‘lik, yoqilg‘i, o‘g‘it, ish haqi va boshqa xarajatlarning umumiy tannarxdagi ulushi aniqlanadi. Xarajatlar tarkibini tahlil qilish ularni kamaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

4. Fermer xo‘jaliklari faoliyatining yakuniy samarasi foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. Rentabellik darajasi ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan olingan foyda bilan aniqlanadi. Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklarida rentabellik darajasining o‘zgarishi bozor sharoiti va mahsulot narxlariga bevosita ta‘sirini statistik baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, Toshkent viloyati fermer xo‘jaliklarida mahsulot (ish, xizmatlar) yetishtirish jarayonlarini statistik baholash, muammolarni aniqlash va samarali yechimlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Toshkent viloyatidagi fermer xo‘jaliklarining barqaror rivojlanishi respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida" gi O'RQ - 707 – sonli qonuni. 2021 yil. 11 avgust. . www.lex.uz.
3. N. M. Soatov, N.G'. Nabiyeu, A.H. Ayubjonov. Amaliy statistika. Darslik. Toshkent-2020 yil.
4. Shodiyev X. va Xabibullayev I. Statistika: darslik //. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019 yil.
5. Esanov E., Bebutova Z. Kompakt to 'plamda ko'lchami birga teng qatlamalar //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 12 Part 2. – С. 72-80.
6. Hamidovna B.Z. Silliqlik ko'p xilliklarning ba'zi tatbiqlari // international journal of recently scientific researcher's theory. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 73-77.
7. Hamidovna B.Z. Introduction of the first great limit // Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – Т. 10. – №. 08. – С. 1-8.
8. Fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)larning statistik tahlili/ Moliyaviy texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. /3-son/ <http://fintech.tfi.uz/> [1]
9. Fermer xo'jaliklarida mahsulot (xizmat)larni ishlab chiqarishda xorijiy tajribalaridan foydalanish/ Moliyaviy texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. /4-son/ <http://fintech.tsue.uz/>
10. Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2020-2024-yillar bo'yicha ma'lumotlari.
11. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.